



OCHIQ DARS

Dars turi: smenar
mashg'ulot

**Fan: Umumiy
pedagogika**



Sana: 24.10 2025



xona: 110 xona
soat: 13:00



Guruh: 11K-2024

Mavzu: "STEAM ta'lim (STEAM
education). Iqtidorli o'quvchilarni
o'qitish. "

Fan o'qituvchisi:
Qosimova Gulzoda



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasining katta
o'qituvchisi G.E.Qosimovaning 60530100 – Kimyo
(turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi 3-kurs 11-P-
2023-guruhda "Umumiy pedagogika" fanidan
"Steam ta'lim. Iqtidorli o'quvchilarni o'qitish"
mavzusida tayyorlangan 2 (ikki) soatlik ochiq dars
ishlanmasiga

T A Q R I Z

60530100 - Kimyo ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga STEAM ta'limni talabalarda fanlararo integratsiya, amaliy fikrlash va innovatsion yondashuvni shakllantirishni ifodalaydi. Ushbu ta'lim turi orqali tabiatshunoslik, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikaga oid bilimlar yagona jarayonda uyg'unlashadi. Bu esa talabaning dunyoni yaxlit tizim sifatida ko'ra bilishiga, turli hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishiga yordam beradi.

STEAM ta'limi talabalarga bir nechta muhim imkoniyatlar beradi. Avvalo, ular real hayotga yaqin vaziyatlarda muammoni hal qilish ko'nikmasini egallaydi. Talabalar mustaqil fikrlaydi, turli yechimlarni solishtiradi va eng maqbulini tanlay oladi. Shuningdek, turli loyihalar ustida ishlash jarayonida ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, dizayn fikrlash va hamkorlikda ishlash malakalari rivojlanadi. Amaliy mashg'ulotlar esa bilimning real hayotda qanday qo'llanishini ko'rsatadi: modellashtirish, konstruktorlik, tajriba o'tkazish, o'lchash, hisoblash kabi ko'nikmalar mustahkamlanadi.

Shu dolzarb masalalarni ko'zlab tayyorlangan mazkur 2 (ikki) soatlik ochiq darsi mavzusi DTS talablaridan kelib chiqib, o'quv rejasi va dasturi asosida tuzilgan.

G.E.Qosimovaning "Steam ta'lim. Iqtidorli o'quvchilarni o'qitish" mavzusida tayyorlangan 2 (ikki) soatlik ochiq darsi mavzusining maqsadi talabalarda Steam ta'lim tushunchasi, mohiyati, ahamiyati va uni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash usullariga oid nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish hamda uni tarbiyaviy ishda qo'llay olish kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida mavzuga doir ma'lumotlar yoritilgan, taqdimotda rangli rasmlar va ma'ruza asosida savollar keltirilgan.

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi G.E.Qosimova tomonidan tayyorlangan 2 (ikki) soatlik ochiq darsi mavzusi oliy ta'lim sohasidagi islohotlar va bugungi kun talablari hisobga olingan. Ochiq darsi mavzusini amalda foydalanishni tavsiya etaman.

Pedagogika va psixologiya kafedrası
mudiri p.f.f.d., dots. PhD



D.M. Boboqulova

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Pedagogika-psixologiya” kafedrasining 2025 yil 24.10

№ 5 - sonli bayonnomasidan

KO‘CHIRMA

Qatnashdilar: Pedagogika-psixologiya kafedrası mudiri Pedagogika fanlar nomzodi dots:
D. Boboqulova “Pedagogika-psixologiya” kafedrası o‘qituvchilari F. O‘rozov,
B. Shaximardonova, I. Turdiyeva, N. Shaymardonova, M. Ko‘chkinova

Kun tartibi:

Professor-o‘qituvchilar tomonidan ochiq darslarni o‘tkazish va o‘zaro darslarga kirishning tashkil etilishi to‘g‘risida

G. Qosimovanning ochiq darsi muhokamasi

Mas‘ul: Pedagogika-psixologiya kafedrası mudiri Pedagogika fanlar nomzodi dots:
D. Boboqulova

Ochiq darsning mohiyati haqida bahs – munozara: G. Qosimovanning axboroti “Umumiy pedagogika” fanidan “STEAM ta‘lim. Iqtidorli o‘quvchilarni o‘qitish” mavzusidagi ochiq darsining muhokamasi.

Kafedra yig‘ilish raisi Pedagogika-psixologiya kafedrası mudiri Pedagogika fanlar nomzodi dots: D. Boboqulova

Hurmatli professor-o‘qituvchilar G. Qosimovanning ochiq darsi “STEAM ta‘lim. Iqtidorli o‘quvchilarni o‘qitish” mavzusida 2025-yil 24-oktabr 110-xona 2-smena 1-para “Aniq va tabiiy fanlar” fakultetining Kimyo yo‘nalishi 11K-guruh talabalariga smenar mashg‘ulot darsi o‘tkazildi. Talabalarni bugungi kundagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy yangiliklar bilan tanishtirib o‘tdi. O‘qituvchi darsni tashkil etishda “STEAM ta‘lim. Iqtidorli o‘quvchilarni o‘qitish” dan foydalangan holda darsni tashkil etdi. Smenar shaklda o‘tilgan ochiq darsda pedagog avvalo “STEAM ta‘lim. Iqtidorli o‘quvchilarni o‘qitish” haqida tushuncha berdi. O‘qituvchi o‘quv jarayonini tashkil etishda o‘quv rejalari va dasturlariga amal qilgan holda darsni tashkil qildi. Dars ilg‘or pedagogik texnologiya asosida tashkil etildi. Mavzuning rejalari aniq va to‘liq berilgan. Dars davomida o‘qituvchi tezkor savollar yordamida “Uchinchisi ortiqcha”, “Tarmoqlar”, “Taqqimot strategiya” metodi “T” jadvalidan foydalandi. Turli metod va usullarni qo‘llagan holda o‘tilgan mavzuni mustahkamlab oldi. Yangi mavzuni mustahkamlashda “Toifalash” usulidan foydalandi. Bundan tashqari talabalar ham seminar darsda aktiv ishtirok etib, reja asosida mavzuni yoritib berishga harakat qildilar. Dars jarayonida talabalarga elektron ta‘lim usulari yordamida talabalarga turli xil savollar berdi va savollarga javob oldi, ko‘rgazmali qurollardan ham foydalanildi.

Darsning sifati har bir dars komponentlarining to‘g‘ri aniqlanganligi ularning ratsional uyg‘unlashuviga bog‘liq. Shunday ekan, bugungi G. Qosimovanning ochiq darsini kuzatib, quyidagi fikrlarni aytmoqchiman.


Darsni metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etdi:

- a) darsda maqsadni aniq ta‘limiy va tarbiyaviy masalaga qaratdi.
- b) o‘quv materiallarini tahsil oluvchilarga yetkazishda munosib metoddan foydalandi,
- v) talabalar jamoasi aniq bir faoliyatga jalb etildi.
- g) darsning rejasi va maqsadi aniq, puxta oldindan rejalashtirilgan. “Umumiy pedagogika” fani bo‘yicha me‘yoriy hujjatlar yetarli.



Soʻz Pedagogika-psixologiya kafedrasi mudiri Pedagogika fanlar nomzodi
dots:D.Boboqulovaga

Dars jarayonida bahs usullaridan samarali foydalanildi. Ilg'or pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan foydalanildi. Darsda talabalar faol ishtirok etdilar. Dars qiziqarli tashkil etildi. Yosh avlodni bilimli, ma'rifatli shaxs sifatida kamol toptirishda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarining ahamiyati beqiyosdir. Bugungi ochiq darsni G.Qosimova ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida olib bordi. Dars davomida talabalarning faolligini oshirishga, muntazam tarzda qiziquvchanligini oshirishga harakat qildi. O'qituvchi oldiga qo'ygan maqsadiga erishdi.



Katta o'qituvchi Shaymardanova N – "Umumiy pedagogika" fanining namunaviy dasturi, ishchi dasturi, kalendar tematik ish rejasi, fanning texnologik xaritasi, ma'ruza matnlari mavjud. Mavzu juda qiziqarli yoritib berildi. Darsda ko'rgazmali qurollardan foydalanildi. Talabalar savollarga erkin javob berdilar. O'qituvchi darsni tashkil etish jarayonida pedagogik texnologiyalardan to'g'ri foydalangan holda talabalarni mash'g'ulotga jalb qila oldi. O'qituvchi B.Shaximardanova – O'qituvchi darsni to'g'ri tashkil qilgan Talabalar bilan ishlash jarayoniga alohida e'tibor qaratilgan. Zamonaviy Axborot texnologiyalardan foydalanganligi va taqdimotni talab darajasida tayyorlanganligi talabalarni darsga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirdi. Talabaning bilim olishdagi mustaqilligini oshirish, mustaqil faoliyatini tashkil etish yo'li bilan ular nutqining to'g'riligi va sofligiga mas'uliyat bilan qarash lozim, deb o'ylayman.

Kafedra yig'ilishi qaror qildi:

1. G.Qosimovaning ochiq darsi zamonaviy talablar darajasida o'tganligi, unda hozirgi ta'lim metodlaridan, Axborot texnologiyalardan unumli foydalanishning muhim jihatlari qamrab olingani qayd qilinsin.
2. G.Qosimovaning olib borgan ochiq darsning dolzarbligi, ilmiy-amaliy jihatdan mukammalligi hisobga olinib, ijobiy baholansin.

Kafedra mudiri Pedagogika fanlar nomzodi dots:



Kotib:

D.Boboqulovaga

M.Ko'chkinova